



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/CLIQ5811

TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDA FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR

Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha 1-bosqich tayanch
doktoranti
lobarkhonn@icloud.com*

Annotatsiya Mazkur maqolada til o'qitish metodikasi tarixida autentik matnlardan foydalanishning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Avvalo, grammatika asosida o'qitishga urg'u berilgan davrlardan boshlab, kommunikativ yondashuv paydo bo'lishi va autentik materiallarning ahamiyatining ortib borishi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, Keith Morrow, Henry Widdowson, David Nunan, Alan Maley va boshqa mashhur tilshunoslarning autentik matnlar haqidagi qarashlari va tadqiqotlari ko'rib chiqilgan. Autentik materiallarning afzalliklari va kamchiliklari chuqur tahlil qilinib, ularning til o'rgatish va o'rganishdagi o'rni, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi roli yoritilgan. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar, internet va multimedia vositalari orqali autentik matnlardan samarali foydalanish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilgan. Maqola oxirida autentik materiallardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: autentik matn, rivojlanish bosqichi, autentik matn tarixi, til o'qitish, madaniy kontekst, real muhit, tilshunos olimlar, afzalliklar, kamchiliklar.

Аннотация В данной статье рассматривается история развития идеи использования аутентичных текстов в методике преподавания иностранных языков. Проанализированы этапы перехода от грамматико-переводных методов к коммуникативным подходам, основанным на использовании реальных образцов языка. Рассмотрены взгляды и исследования таких известных лингвистов, как Кит Мэрроу, Генри Уиддоусон, Дэвид Нунан и Алан Мэйли, касающиеся применения аутентичных материалов в обучении. Выделены преимущества и недостатки аутентичных текстов, их роль в формировании коммуникативной компетенции учащихся. Особое внимание уделено современным технологиям, интернету и мультимедиа как средствам расширения доступа к аутентичным ресурсам. В заключение даны рекомендации по эффективному использованию аутентичных материалов в образовательной практике.

Ключевые слова: аутентичный текст, этап развития, история аутентичного текста, обучение языку, культурный контекст, реальная среда, лингвисты, преимущества, недостатки.

Abstract This article examines the historical development and evolution of the use of authentic texts in language teaching methodology. It traces the shift from grammar-focused approaches towards communicative methods that prioritize real-world language use. The research explores the theories and contributions of renowned linguists such as Keith Morrow, Henry Widdowson, David Nunan, and Alan Maley regarding authentic materials in language learning. The advantages and challenges of employing authentic resources are analyzed, highlighting their significance in developing learners' communicative competence. Additionally, the article discusses the role of modern technologies, the Internet, and multimedia in enhancing access to authentic materials. Practical recommendations for the effective use of authentic texts in contemporary language education are provided.

Keywords: authentic text, stage of development, history of authentic text, language teaching, cultural context, real, environment, linguists, advantages, disadvantages.



Til o'qitish metodikasi tarixida autentik matnlardan foydalanish g'oyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalgi davrlarda til o'qitish asosan sun'iy, maxsus yaratilgan matnlar asosida olib borilgan bo'lsa, keyinchalik real hayotdagi til shakllaridan foydalanish zarurligi tan olingan. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, til o'qitishda kommunikativ yondashuvning paydo bo'lishi bilan autentik materiallarga talab ortdi. Autentik matnlarning til o'rganishdagi tarixi va ularni o'rgangan mashhur tilshunos olimlar haqida so'z yuritishdan oldin autentik matnlar tarixining bosqichlarini ko'rib chiqaylik:

1. 1950-1960-yillar: Grammatika-o'qitishga asoslangan metodikalar hukmron edi. Matnlar soddalashtirilgan va sun'iy edi.

2. 1970-yillar: Kommunikativ til o'qitish metodikasi rivojlandi. Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish muhim deb topildi.

3. 1980-yillar: Autentik materiallar keng joriy etildi. O'quvchilarning real hayotiy kontekstda tilni o'rganishi asosiy maqsadga aylandi.

4. 1990-yillar: Multimedia va internet rivojlanishi bilan autentik resurslar ko'lami kengaydi.

5. 2000-yillar va keyin: Mobil texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali autentik kontentga kirish osonlashdi.

Autentik matnlar tarixiga nazar tashlasak, til o'qitish tarixida autentik materiallardan foydalanish g'oyasi 1970-1980-yillarda rivojlangan. Bu davrda kommunikativ til o'qitish metodikasi (Communicative Language Teaching - CLT) shakllanib, o'quvchilarni faqat grammatik qoidalar bilan emas, balki haqiqiy hayotdagi muloqotga tayyorlash maqsadi paydo bo'ldi. Natijada, o'quv jarayonida gazeta maqolalari, reklama e'lonlari, suhbat yozuvlari, televidenie dasturlari kabi real hayotdagi materiallardan foydalanish kengaydi. Avval faqat o'qitish uchun mo'ljallangan sun'iy matnlardan foydalanilgan bo'lsa, endilikda haqiqiy muloqotga asoslangan autentik materiallar muhim ahamiyat kasb etdi. Autentik matnlarni o'rgangan mashhur tilshunoslar ham autentik matnlar haqida turlicha fikrlar berishgan. Masalan, Keith Morrow (1977) autentik matnlar haqida birinchi konseptual ishlanmalarni taklif qilganlardan biridir. U autentik materiallarni real hayotdagi ehtiyojlar uchun yaratilgan matnlar sifatida ta'riflagan va ularning o'qitishdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, o'quvchilar tilni real kontekstda o'rganishi kerak desa, Henry Widdowson (1978) autentiklik tushunchasini yanada chuqurroq o'rgangan. U autentiklikni ikki asosiy turga ajratgan: *matn autentikligi* va *topshiriq autentikligidir*. Widdowson fikricha, tilni o'rganish jarayonida o'quvchi va matn o'rtasidagi aloqaning tabiiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. David Nunan (1988) David Nunan autentik materiallarning o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishdagi o'rnini o'rgangan. U real materiallar yordamida o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, Alan Maley va Alan Duff (1982) Bu ikki olim adabiy autentik materiallardan foydalanish g'oyasini ilgari surgan. Ular, xususan, hikoyalar va she'rlar kabi badiiy asarlarni til o'qitish jarayoniga jalb qilish orqali



o'quvchilarning emotsional va madaniy tajribalarini boyitish mumkinligini ko'rsatgan. Shu orqali bu tilshunos olimlar autentik matnlar haqida turlicha fikrlar berishgan:

1. Keith Morrow (1977): "Autentik matnlar - bu o'quv maqsadlari uchun emas, balki real kommunikatsiya ehtiyojlari uchun yaratilgan materiallardir."

2. Henry Widdowson (1978): "Autentiklik - bu til vositasida amalga oshiriladigan haqiqiy kommunikatsiyaning o'quv jarayonida aks etishidir."

3. David Nunan (1988): "Autentik materiallar o'quvchilarga tilni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qanday ishlatilishini o'rgatish imkonini beradi."

Til o'rganish nafaqat grammatik bilimlarni, balki real kontekstda muloqot qilish qobiliyatini, madaniy tafakkurni va kontekstual tushunishni ham rivojlantiradi. Bu borada Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) autentik materiallardan foydalanishni qat'iy tavsiya etadi, chunki ular til o'rganuvchining funksional kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi (Council of Europe, 2001).

Til o'qitishda autentik matnlardan foydalanish o'quvchilarni real til muhitiga tayyorlashda katta rol o'ynaydi. Bu materiallar orqali o'quvchilar nafaqat til strukturasi, balki madaniy kontekst va muloqot uslublarini ham o'zlashtiradilar. Keith Morrow, Henry Widdowson, David Nunan, Alan Maley va Andy Gilmore kabi olimlarning ishlari bu sohada muhim poydevor yaratdi. Bugungi kunda autentik materiallar til o'qitishning ajralmas qismiga aylangan. Til o'qitish va o'rganish jarayonida o'quvchilarga haqiqiy, real hayotda ishlatiladigan til namunalarini taqdim etish katta ahamiyatga ega. Bunday namunalar ko'pincha "autentik matnlar" deb ataladi. Autentik matnlar - bu til o'qitish uchun maxsus tayyorlanmagan, balki real hayotdagi ehtiyojlar uchun yaratilgan materiallardir. Ular gazeta maqolalari, reklama e'lonlari, radio va televidenie dasturlari, bloglar, ijtimoiy tarmoq postlari va hatto shaxsiy xatlar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

Autentik matnlar dastlab o'qitish uchun tayyorlanmagan faqat pedagogik jihatdan faqat o'g'zaki uslublarda qo'llash uchungina foydalangan bo'lsa, keyinchalik ona tilida so'zlashuvchilar va ikkinchi til o'rganuvchilari uchun alohida shakllarda ajratilgan va shu orqali autentik matnlar nima uchun kerak va ularning qanday afzallik va kamchilik tomonlarini sekin- asta tadqiqotchilar tarjibadan o'tkazila boshlashgan. Ona tilida so'zlashuvchilar uchun autentik matnlarni qo'llash unchalik samara bermaydi,- degan fikrga kelingandan keyin asosiy urg'u ikkinchi til o'rganuvchilarga qaratilgan va til o'rganish yoki o'qitish jarayonidagi grammatika, so'zlashuv, eshitish, o'qib tushunish va yozish ko'nikmalarida autentik matnlardan foydalanish keng tus oldi va shu jarayonda autentik matnlarning afzalliklari va kamchiliklari ham ko'rina boshladi.

Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, haqiqiy materiallar tilni samarali o'rganishga yordam beradi va talabalarning umumiy kommunikativ kompetensiyasi uchun foydalidir. Richards (2001) autentik matnlardan foydalanishning afzalliklarini quyidagicha ifodalaydi:



1. *Haqiqiy til muhitini yaratish.* Autentik matnlar orqali o'quvchilar o'qilayotgan tilning real hayotdagi shakllarini o'rganadilar. Bu ularga tilning tabiiy ritmi, uslubi va kontekstini chuqurroq anglash imkonini beradi.

2. *Madaniy kontekstni o'rganish.* Autentik materiallar nafaqat tilni, balki u bilan bog'liq madaniyatni ham o'rgatadi. O'quvchilar ma'lum bir til rasida odat, urf-odat va ijtimoiy me'yorlar haqida bilib olishadi.

3. *O'qish va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish.* Real matnlar murakkab va xilma-xil bo'lgani uchun, o'quvchilarning o'qish va tinglash ko'nikmalari sezilarli darajada rivojlanadi. Ular matndagi asosiy g'oyani aniqlash, tafsilotlarga e'tibor qaratish va kontekst orqali ma'noni tushunish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

4. *Motivatsiyani oshirish.* O'quvchilar real dunyo bilan bog'liq materiallar bilan ishlash orqali o'zlarining o'rganayotgan tillari haqiqiy hayotda qanday ishlatilishini ko'rishadi. Bu ularda o'qishga va o'rganishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

5. *Strategik fikrlashni rivojlantirish.* Autentik matnlarni tushunishga harakat qilgan o'quvchilar kontekstdan foydalanish, taxmin qilish va asosiy ma'lumotlarni ajratib olish kabi strategiyalarni o'zlashtiradi.

Bundan tashqari bir qancha tilshunoslar autentik matnlarning afzalliklari haqida o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib turlicha fikr beradilar. Speller (2002) autentik materiallar madaniyat va kontekstga boy ekanligini qo'shimcha qiladi, shuning uchun ular haqiqiy muhitda o'quvchilarga darsda o'rganib bo'lmaydigan elementlarni o'rganishi eng katta afzalliklaridan biri deb baholaydi. Larson-Friman (2011 yil) kommunikativ tillarni o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishni tavsiya qiladi. Uning ta'kidlashicha, autentik materiallar "o'rganuvchilar darsda o'rgangan til elementlarini tashqi muhitda qo'llashdagi muammoni yengishda katta rol o'ynaydi,- deb yozadi. Shuningdek, Garsiya (1991) til o'rganishda autentik matnlardan foydalanish o'quvchilarning madaniy ongini oshiradi, deb da'vo qiladi. Sherman autentik materiallardan foydalanish nafaqat o'quvchilarga o'rganilayotgan til madaniyatini tabiiy ravishda o'rganishga yordam beradi, balki ularda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ham yordam beradi. Tomlinson va Masuxara fikricha, autentik matnlar madaniy xabardorlikni oshirish va madaniy empatiya va sezgirlikka erishishga yordam beradi.

Garchi ko'plab tadqiqotchilar til o'rganish jarayonida autentik materiallardan foydalanishning afzalliklarini ko'rsatsalar ham, bunga qarshi fikrlar ham mavjud.—yoki hech bo'lmaganda ogohlantirish shaklidagi kamchiliklar ko'rsatilgan. Richards autentik materiallardan foydalanishning afzalliklarini tan oladi, shuningdek, u autentik materiallarda qiyin til, lug'at va til tuzilishi mavjudligini ham ta'kidlaydi. Tilni qo'llashning bunday murakkabligi tufayli ular autentik matnlardan foydalanishning kamchiliklarini quyidagicha izohlaydi:

1. *Til darajasiga mos kelmaslik.* Autentik materiallar ko'pincha murakkab va murakkab lug'at, idiomatik ifodalar hamda ixtisoslashgan bilimlarni talab qiladi.



Boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun bunday materiallar tushunarsiz bo'lishi mumkin.

2. *Vaqt va tayyorgarlik talab etilishi.* O'qituvchilar uchun autentik matnlardan samarali foydalanish ko'p vaqt va tayyorgarlikni talab qiladi. Materialni tanlash, uni o'quvchilarning til darajasiga moslashtirish va tegishli mashqlarni tayyorlash zarur.

3. *Tushunmovchilik va motivatsiyaning pasayishi.* Agar matn juda qiyin bo'lsa, o'quvchilar uni tushunmay, o'zlarida ishonchsizlik his qilishlari va motivatsiyalari pasayishi mumkin.

4. *Madaniy tafovutlar.* Ba'zi autentik materiallar o'quvchilar uchun notanish yoki tushunarsiz madaniy kontekstlarga ega bo'lishi mumkin. Bu esa noto'g'ri talqinlarga yoki noqulaylikka olib kelishi ehtimoli bor.

5. *Nazorat qilish qiyinligi.* Autentik materiallar o'quvchilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin, bu esa o'qituvchi uchun o'quv jarayonini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, autentik materiallardan foydalanish kerakmi yoki yo'qmi, bu asosiy masala emas, balki haqiqiy, simulyatsiya qilingan va maxsus yozilgan materiallarning qanday kombinatsiya qilish, o'quvchilarga mos va kerakli materiallarni topib optimal o'rganish imkoniyatlarini taqdim etishidir.

Til o'qitishda yoki o'rganishda autentik matnlardan foydalanish o'quvchilarga real dunyo tili va madaniyati bilan tanishish imkonini beradi. Bu usul o'qish, tinglash va strategik fikrlash kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Biroq, autentik materiallarning qiyinligi va tayyorgarlik talab qilishi sababli, ularni ehtiyotkorlik bilan tanlash va moslashtirish zarur. O'qituvchi autentik matnlarni tanlarkan, o'quvchilarning til darajasi va ehtiyojlarini hisobga olishi, ularni qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha yordam vositalarini taqdim etishi kerak. Shundagina autentik materiallardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirishi mumkin. Yakunida ta'kidlash kerakki, Keith Morrow, Henry Widdowson, David Nunan, Alan Maley, Andy Gilmore, Michael Long va Stephen Krashen kabi olimlarning ilmiy ishlari autentik materiallarning o'qitish jarayonidagi rolini chuqur ochib bergan va zamonaviy til o'qitish metodikasiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda internet va multimedia resurslarining kengayishi esa autentik materiallardan foydalanishni yanada samarali va xilma-xil shakllarda tashkil etishga imkon bermoqda. Kelajakda esa su'iy intellekt va virtual reallik kabi texnologiyalar yordamida autentik ta'lim resurslari yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Morrow, K. Authentic texts and language learning. ELT Journal, 31(4),1977. –305-311p.
2. Widdowson, H.G. (1978). Teaching Language as Communication. Oxford: Oxford University Press.1978.
3. Nunan, D. The Learner-Centred Curriculum. Cambridge: Cambridge University Press.1988.



4. Maley, A., & Duff, A. Drama Techniques in Language Learning. Cambridge: Cambridge University Press.1982.
5. Бухбиндер В. А. О системе упражнений // Общая методика обучения иностранным языкам: хрестоматия. –М.: 1991. – 92-99с.
6. Long, M. The role of the linguistic environment in second language acquisition. In W.C. Ritchie & T.K. Bhatia (Eds.), Handbook of Second Language Acquisition. Academic Press.1996.
7. Krashen, S. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
8. Richards, J.C., & Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.2001.
9. Little, D., Devitt, S., & Singleton, D. Learning Foreign Languages from Authentic Texts: Theory and Practice. Dublin: Authentik.1989.
10. Guariento, W., & Morley, J. (2001). Text and task authenticity in the EFL classroom. ELT Journal, 55(4), 347-353.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/PWYW1156

O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Hamroyev Umid Mustafoyevich

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti

mustaqil izlanuvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi

E.mail: uhamroyev84@gmail.com

ORCID: 0009-0005-7721-9363

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'quvchilarning dars jarayonida kognitiv faolligini oshirishda mashq va topshiriqlarning ahamiyati, o'quvchilar faolligiga ta'sir haqida atroflicha bayon qilingan. Ona tili ta'limida ta'lim oluvchilarning kognitiv kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan qoliplangan (namunaviy) mashqlar, idrokiy mashqlar va ko'rgazmali mashqlar kabi turlari asosida dars jarayoniga tayyorgarlik ko'rish va amaliyotga qo'llash haqida tavsiyalar atroflicha bayon qilingan.

Kalit so'zlar: kognitiv faoliyat, xotira, o'rganish, tahlil qilish, sintez qilish, qoliplangan (namunaviy) mashqlar, idrokiy mashqlar, ko'rgazmali mashqlar.

Annotation

This article describes in detail the importance of exercises and tasks in increasing students' cognitive activity in the lesson process, their impact on student activity. Recommendations are given in detail on the preparation and practical application of the lesson process based on such types as modeled (sample) exercises, cognitive exercises, and demonstration exercises aimed at forming the cognitive competence of learners in native language education.

Keywords: cognitive activity, memory, learning, analysis, synthesis, modeled (sample) exercises, cognitive exercises, demonstration exercises.

O'quvchilarda kognitiv faoliyatni oshirish maqsadida o'qitish jarayonida innovatsion (zamonaviy) ta'lim usullari, mantiqiy o'yinlar, amaliy va laboratoriya jarayonlaridagi tadqiqotlar va texnologiyalardan foydalanish kabi yondashuvlar taqdim etiladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat shaxsiy, balki ijodiy



MASALASI	
<i>Abdiraimova Khusnobod Samat kizi. KOGNITIV VA METAKOGNITIV O'QIB TUSHUNISH STRATEGIYALARI</i>	597
<i>Xonzodabegim Abdiyeva Turdiboy qizi. ONA TILINI O'QITISHDA FOTO MATERIALLARDAN FOYDALANISH</i>	603
<i>Abduqaxxorova Durdona Farxod qizi. SO'ZNING SEMANTIK TARKIBIDA ASOS VA AFFIKSLARNI O'QITISH USULLARI</i>	605
<i>Ahmadjonova Umida Ikromjon qizi. ONA TILI TA'LIMIDA O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRUVCHI O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI</i>	614
<i>Askarova Mashxura Akmal qizi. NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILINI O'QITISH</i>	620
<i>Atamurodova Gulnora Shermurodovna. TALAFFUZI QIYIN BO'LGAN AYRIM NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH METODIKASI</i>	626
<i>Baxtiyorova Xusnora Muzaffar qizi. IJOD MAKTABLARIDA YOZMA NUTQ KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID AMALIY TOPSHIRIQLAR TAVSIFI</i>	630
<i>Avezova Dilnura Bayramovna. ESSE YOZISHDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLAR VA ULAR USTIDA ISHLASH USULLARI</i>	635
<i>Axmadjanova Malika Maxmudjon qizi. O'ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O'QITISHDA LUG'AT BOYLIGINI SHAKLLANTIRISHNING MAVJUD HOLATI</i>	638
<i>Davronova Zebiniso Bahtiyor qizi. SEZGI A'ZOLARI ASOSIDA TASVIRIY MATN YARATISH JARAYONI TAHLILI</i>	646
<i>Ergasheva Lobarxon O'tkir qizi. TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA AUTENTIK MATN VA UNDAN FOYDALANISHDAGI AFZALLIK VA KAMCHILIKLAR</i>	651
<i>Hamroyev Umid Mustafoyevich. O'QUVCHILARDA KOGNITIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH</i>	656
<i>Iskandarova Noila Muxtor qizi. PUBLITSISTIK USLUBNI O'RGANISH ORQALI O'QUVCHILARNING TANQIDIY VA IJODIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	661
<i>Israilova Z. XORIJLIK TALABALARINING O'ZBEK TILIDA SO'Z O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI</i>	664
<i>Komilova Lola Nosillojevna. ONA TILI TA'LIMIDA DARAJALI TESTLAR</i>	670
<i>Axmadiyeva Ozoda Iskandar qizi. 10-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI</i>	677
<i>Madina Axmadjanova Mahmudjon qizi. MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI GRAMMATIK MINIMUM ASOSIDA O'QITISH TAMOIYILLARI</i>	682
<i>Komilov Xusanboy Bahodir o'g'li. ONA TILINI O'QITISHDA INTERFAOL DASTURLAR VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH</i>	689
<i>Madvaliyev Orifjon Tolibovich. TAHRIR TA'LIMINI TASHKIL ETISH: DASTLABKI QADAMLAR</i>	693

